

Mustaqil Ta'lim Ishlarini Tashkil Etish Turlari

Najiyeva Sojida Nasirdinovna¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning mustaqil ishlari innovatsion texnologiyalarga asoslangan bo'lishi kerak. O'qituvchi rahbarligida talabalarning mustaqil ishlarini auditoriyadagi berilgan topshiriq doirasida talabalarning bajarilgan ishlari qabul qilinib olinadi (tizim asosida). O'qituvchi rahbarligida talabalarning mustaqil ishlari har bir fan bo'yicha butun akademik o'qish davrida sana, vaqt, auditoriyasi ko'rsatgan holda grafik bo'yicha o'tkazilishi haqida gap boradi.

Kalit so'z: Pedagog, kasb, shaxs, ta'lim, modul, kredit, tizim, o'quv, fikr, kelajak, mutaxassis.

Talabalarning mustaqil ishlari mazmuni fanning xususiyatidan, oliy ta'lim muassasasining texnik imkoniyatlaridan va kutubxonaning o'quv-uslubiy ta'minlanganidan kelib chiqib aniqlanadi. Talabalarning mustaqil ishlari innovatsion texnologiyalarga asoslangan bo'lishi kerak. O'qituvchi rahbarligida talabalarning mustaqil ishlarini auditoriyadagi berilgan topshiriq doirasida talabalarning bajarilgan ishlari qabul qilinib olinadi (tizim asosida). O'qituvchi rahbarligida talabalarning mustaqil ishlari har bir fan bo'yicha butun akademik o'qish davrida sana, vaqt, auditoriyasi ko'rsatgan holda grafik bo'yicha o'tkaziladi. O'qituvchi rahbarligida talabalarning mustaqil ishlari doirasidagi mashg'ulotlar maslahat va interfaol shakllarda bo'lishi mumkin, ularning nisbati o'rganilayotgan fanning murakkabligi, ularni o'rganishga ajratilgan auditoriya soatlari hajmi, talabalarning tayyorgarlik darajasi bilan aniqlanadi.

Yakka tartibda maslahat olgan talaba, o'qituvchilarning mehnatini hisobga olish bo'yicha jurnalga imzo qo'yadi. Talabalarning mustaqil ishlarining sifatini kafedra nazorat qiladi, bunda talabalarning mustaqil ishlarining hajmi, mazmuni va hisobot turini tasdiqlaydi, ish hajmini, ketma-ketligini va topshirish muddatlarini aniqlaydi, talabalarning mustaqil ishlari natijalari bo'yicha talabalar va o'qituvchilarning hisobotlari ko'rib chiqiladi.

Talaba qanday mustaqil ta'lim mavzularni bajaradi? U foydalanishi uchun manbalarni qaydan oladi? Pedagog sifatida siz unga qanday yordam berasiz? Yoki yo'l-yo'riq ko'rsata olasiz?, kabi savollar juda ham bisyor. Biz bu savollarga tadiqiqotimiz davomida javob berishga harakat qilamiz. Talabalarga hamidan avval o'tilayotgan fanlarning nazariy asoslarini o'rgatish kerak. O'quv materiallarini shunday taqsimlash lozimki, keyingi mashg'ulotlar oldin o'rganilgan narsalarning davomi bo'lib, ularni bir oz chuqurlashtirish va to'ldirish kerak. Avvalo, har qanday til, har qanday fan va san'atni oddiy va elementar shaklda o'rgatish kerak, toki ustoz talabalarda shu fan haqida umumiy va yaxlit tushuncha hosil qilsin; so'ngra shu fanni chuqurroq o'rgatish uchun qoida va misollar keltirilishi lozim bo'ladi. O'qitishda ham o'rgatiladigan narsalarning hammasi bir-biri bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lishi lozim.

Talabalarga mustaqil ishlarini topshirishda biz ularga mustaqil ta'limning ta'limdagisi o'rnnini amerikalik psixolog va pedagog B. Blumning Blum taksonomiyasi orqali tushuntirib o'tishimiz maqsadga muvofiq: ya'ni, Blum taksonomiyasida tafakkurning rivojlanishini "Bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, umumlashtirish, baholash" kabilalar orqali anglatsak ko'zlangan maqsadga erisha olamiz degan fikrlar mujassam. Talabalarning mustaqil ishlari mazmuni mantiqiy fikrlashni, ijodiy faollikni, o'quv materialini o'zlashtirishda tadqiqotchilik yondashuvini shakllantirishga imkon beruvchi amaliy topshiriqlarni bajarish bilan bog'liq bo'ladi. Odatda, talabalarning mustaqil ishlari talabaning to'la mustaqil faoliyati bilan birgalikda auditoriyadan tashqarida bajariladigan o'qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi hisoblanadi. Kunduzgi ta'lim shaklida bakalavr yo'nalishida talabalarni

¹ SamDChTI Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrasini o'qituvchisi



mustaqil ishlarini umumiy soatlari fan hajmining yarmini tashkil etadi va uning ham deyarli yarmi o'qituvchi rahbarligida talabalarning mustaqil ishlariga ajratiladi. Sirtqi ta'limda talabalarning mustaqil ishlarini hajmi fan hajmining 4/5 qismini tashkil etishi maqsadga muvofiq.

O'qituvchi rahbarligida talabalarning mustaqil ishlari yuklamasi o'qituvchining yuklamasiga to'laligicha kirmaydi, ammo kontakt mashg'ulotlar uchun o'qituvchiga alohida yuklama belgilanadi (hisob-chizma ishi, kurs ishi, kurs loyihasi, bitiruv ishi, magistrlik dissertatsiyasi, ilmiy izlanuvchiga rahbarlik, tayanch doktorantga rahbarlik va b.). Talabaning mustaqil ishlarini tashkil qilish oliv ta'lim muassasasining asosiy me'yoriy hujjatlari, jumladan ishchi o'quv dasturlari (sillabus), fan modullarini mustaqil o'rganish bo'yicha talablarga muvofiq tarzda amalga oshiriladi.

Mustaqil ta'lim mavzularini "Pedagogika" fani misolida "Moodle" platformasiga quydagi shakllarda joylashtirish mumkin:

talabaning bevosita o'zi tomonidan mobil qurilmasi orqali amalga oshiriladigan mustaqil ish turlari;
axborot izlash o'z qiziqishlaridan kelib chiqib taqdim qilingan dayjest orqali internet materiallarini o'rganish;

forum - fan mavzulari bo'yicha telegram kanallari yoki masofaviy ta'lim platformalarida fikr almashish;

test yechish - o'rgatuvchi test dasturlarida mashq qilish orqali fan moduliga oid materiallarni mustahkamlash;

nazorat ishiga tayyorlanish - fan bo'yicha kutilayotgan oraliq va yakuniy nazoratlarga tayyorgarlik ko'rish masala yechish

amaliy mashg'ulot mavzusi bo'yicha berilgan masalalarni yechish va uni yozma tarzda taqdim qilish;

referat - muammoning yozma bayoni, bunda adabiy manbalar sharhlanadi yoki ilmiy ish, kitoblar tahliliy bayon qilinadi;

kollokium - o'quv modulining nazariy qismining o'zlashtirilishini tekshirish maqsadida suhbat uyushtirish;

esse - dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;

taqdimot - berilgan mavzu bo'yicha slayd va video materiallar vositasida chiqish qilish;

keys-stadi ishlab chiqarishdagi muammoli vaziyatlar bo'yicha belgilangan shakldagi topshiriqlar bo'yicha yechim izlash;

ish o'yinlari - kasbiy faoliyat jarayonlarini immitatsiya qilish, sahnalashtirish, rollarni ijro qilish orqali kasbiy ko'nikmalar orttirish;

kurs ishi - fan yoki fanlar majmuasi (korxonalar iqtisodiyoti, menejment asoslari, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi, fuqaro himoyasi va b.) muammolari bo'yicha bajariladigan belgilangan uslubiy qo'llanmalar asosida yoziladigan yozma va hisob ishlari;

kurs loyihasi - fan yoki fanlar majmuasi (texnik mexanika, texnologik jarayon va qurilmalar, mutaxassislikka oid loyiha ishlari bajariladigan fanlar) muammolari bo'yicha belgilangan uslubiy qo'llanmalar asosida bajariladigan grafik chizmalar ilova qilinadigan belgilangan uslubiy qo'llanmalar asosida yoziladigan hisob ishlari;


fan to'garaklarida ishtirok etish - talabaning fan to'garaklarida maket, slayd, namunalar kabi ko'rgazmali materiallarni tayyorlashi;

tanlovlarda ishtirok etish - talabaning o'qituvchining ilmiy rahbarligi ostida turli tanlovlarda ishtirok etishi (yosh ixtirochi, talabalar startap loyihalari va h.k.);

ilmiy anjumanlarda ma'ruza qilish - fanga oid ilmiy tadqiqot mavzusi bo'yicha OTM, Respublika va xalqaro miqyoslarda o'tkaziladigan ilmiy-texnikaviy anjumanlarda ma'ruza qilish;




ilmiy tezis va maqolalar chop etish-ilmiy anjumanlarning to‘plamlarida tezislар va ilmiy jurnallarda ilmiy tadqiqot mavzusi bo‘yicha maqolalar chop qilish; Talabalar mustaqil ishlarni bajarish orqali mavzular yuzasidan ularda tushunchalar ko‘proq hosil bo‘ladi. Pedagoglar talabalardan mustaqil ish turini referat yoki partfoliya shaklda qabul qiladilar. Ularni quydagicha qabul qilishlari mumkin:



2.3-rasm. Referat turlari

Referat ifoda etilayotgan savolga referatning sub'yektiv qarashlarini hamda matnga baho berishni mujassam etmasligi lozim. Referat asosiy e’tiborni yangi ma'lumotlarga dastlabki matnga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiqligini aniqlab beradi.

Bugungi kunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini pedagogik faoliyat hamda kasbiy kompetentlikning ajralmas qismi sifatida shakllantirish ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Shu sababdan pedagoglarning kasbiy ma'lumotlar bazasi va talabalar bilan o‘quv muloqotlarini elektron resurslar asosida tashkil etish pedagogik jihatdan muhim vazifalar qatoriga kiradi. Bunday vazifalar pedagog kadrlarning elektron portfoliosini ishlab chiqishni taqozo etadi.



2.4- rasm. Referat tarkibi

Ta’lim-tarbiya jarayonlarini modernizatsiyalashtirish ijodiy fikrlovchi, ta’limning zamonaviy metod va texnologiyalarini, pedagogik-psixologik diagnostika usullarini, aniq amaliy faoliyat asosida pedagogik jarayonni mustaqil loyihalash usullarini qo’llay oladigan pedagoglar tarkibini shakllantirishni talab etadi.



Hozirgi kunda pedagoglarga nisbatan o‘zining samarali faoliyatini tashkil qilishda o‘quv, ilmiy hamda madaniy-ma’rifiy tadbirlarni to‘g‘ri rejalshtirishi va amalga oshirishi, kasbiy pedagogik mahoratini uzluksiz oshirib borishda o‘zgarib boruvchi zamonaviy talablarga tezkor ravishda moslashib borish kabi talablar qo‘yilmoqda. Chunonchi, pedagog kadrlarning ta’lim-tarbiya jarayonlaridagi raqobatbardoshligi uning ilg‘or ta’lim texnologiyalarini o‘zlashtirish qobiliyati, o‘zgaruvchan hamda oshib borayotgan kasbiy talablarga moslasha olishiga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lutfullayev M., Aripov M. Informatika va axborot texnologiyalari fanidan” /O‘quv qo‘llanma. Toshkent: 2017. -75 b.
2. Maxmudova M., E.Shamuratova Xorijiy mamlakatlar pedagogikasi tarixi. Samarcand: SamDChTI, 2021.-143 b
3. Mahmudova M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiylikni rivojlantirish muammosi. “Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnali. 2021, (maxsus son) 5-son, 29-32-bet.
4. Musurmonova O. Talabalar ma’naviy madaniyatini shakllantirish. -Toshkent: O‘qituvchi, 1995.- 112b.
5. Muslimov N., Usmonboeva M., Mirsolieva M. Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik. UMK. – Toshkent, 2016. – B. 75
6. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015. – 120 bet.
7. Muslimov N.A., Raximov Z.T., Xo‘jaev A.A., Qodirov H.Sh. Ta’lim texnologiyalari. Darslik. Toshkent “Voris” nashriyoti–2019
8. Olimov Sh., Umarov V. Talabalarda mustaqillik tafakkurini shakllantirish. Monografiya. – T., 2011. – 100 b.
9. Peregudov L.V., Saidov M.X. -Ilmiy ijod metodologiyasi. -Toshkent: Moliya, 2002. -124 b
10. Ochilov M., Ochilova N. - Oliy maktab pedagogikasi. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 264 b.
11. Xo‘jaev B.Q., Olimov Sh.Sh. Yangi pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. - Buxoro, Yoqub Dovud, - 2004. -164 b.
12. Xaydarov F.I. Xalilova N.I Umumiy psixologiya. T.: 2009.-334 b
13. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. – Pedagogik texnologiyalar asoslari. Toshkent: O‘qituvchi, 2004. – 104 b.
14. Yo‘ldoshev J.G’. Ta’lim yangilanish yo‘lida. – Toshkent: O‘qituvchi, 2000. – 207 b
15. O‘rinov Voxid O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta’lim Muassasalarida ECTS Kredit-Modul Tizimi- Toshkent: Tafakkur, 220- 64 b.
16. O‘rinov V., Sultonov M., Umarov A. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tashkilotlarida ECTS Kredit-modul tizimi: Asosiy tushuncha va qoidalar - Toshkent: Ma’naviyat, 220- 96 b.

